



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

KONCHILIK YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILI KASBIY LEKSIK KOMPETENSIYASINI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH MODELI

Saydullayeva Xusnora Utkirovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

saydullaevakhusnora@gmail.com

Tel: +998906460455

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178930>

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada konchilik yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda kasbiy leksik kompetensiyani CLIL ta'lim texnologiyasi yordamida rivojlantirish xususiyatlari o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *leksik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kasbiy leksik kompetensiya, CLIL texnologiya.*

Аннотация: *В данной научной статье рассматриваются особенности развития профессиональной лексической компетенции на основе технологии CLIL.*

Ключевые слова: *лексическая компетенция; коммуникативная компетенция; профессиональная лексическая компетенция, технология CLIL.*

Abstract: *This scientific article discusses the features of the development of professional lexical competence based on CLIL technology.*

Keywords: *lexical competence; communicative competence; professional lexical competence, CLIL technology.*

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli ta'lim berish, globallashuv davrida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb bo'lib qolmoqda. Ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchilarda zamonaviy bilim va malakalarni rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish, xalqaro yondashuvlar asosida mavjud metodikalarni yangilash zarurati ortib bormoqda. Ilg'or texnologiyalar sifatida e'tirof etilayotgan chet tillaridan foydalana olishga qaratilgan yondashuv va metodlarni yaratish ilmiy izlanuvchilar, xususan, pedagoglar oldiga qo'yilayotgan muhim talab va vazifalardan biridir.

Zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar, jumladan, ingliz tilini o'rganish va uni tushunish, idrok etish, eslab qolishning muqobil va variativ usullarini aniqlash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda jahonning ilg'or va tajribadan o'tgan usullarini milliy o'qitish tizimiga joriy etish ijobiy samara bermoqda. Bizning holatimizda, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili fanidan ta'lim beruvchi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

pedagoglar zamonaviy bilim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Shunday pedagogik texnologiyalardan biri CLIL (Content and Language Integrated Learning) ta'lim texnologiyasidir. CLIL ta'lim texnologiyasi – ikki tillilikni amalga oshirish mexanizmi bo'lib, ta'lim oluvchi obyektlarda, ya'ni talabaga o'z ona tili bilan birgalikda o'zga tilni o'rganish imkonini beradi.

P.Mehisto, D.Marsh va M.J.Frigolslar CLILni ikki tomonlama yo'naltirilgan ta'lim, – deya ta'kidlaydilar. CLIL o'quv dasturida tildan foydalanish va kontentni tilda talabaga yetkazish demakdir. An'anaviy til o'rgatish usullaridan farqli o'laroq, CLIL ta'limini o'qitishdan maqsad uning tuzilishini sodda va tushunarli tilda taqdim etishga imkon beruvchi o'qitish texnologiyasidir.

CLIL ta'lim texnologiyasi asosida talaba obyektida kengaytirilgan va integratsiyalangan holda kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. O'rganishi rejalashtirilayotgan mavzuni bir paytning o'zida ingliz va ona tillarida o'zlashtirish kabi juft maqsadlarni amalga oshiradi. CLIL ta'lim texnologiyasining maqsadi talabalarga jamiyatda faol bo'lishiga yordam berish bilan birgalikda matn materialini sohaga doir kasbiy leksik terminlar asosida ingliz tilida o'rganish imkoniyatini berishdan iboratdir.

CLIL ta'lim texnologiyasi asosida ingliz tilining o'rganilishi rejalashtirilayotgan sohaga taalluqli fan kontentini har jihatdan mukammal o'rganish imkoniyatini vujudga keltiradi. CLIL ta'lim texnologiyasi, ayniqsa, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari hamda maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili darslarida qo'llanilishi orqali vaqtdan samarali foydalanish hamda dars jarayonini qiziqarli tashkil etishda o'z samarasini berib kelmoqda. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning kontent va til integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan CLIL ta'lim texnologiyasidan foydalanish ehtiyoji va talabi kuchaymoqda. Talabalarning bo'lajak mutaxassislik bilan o'zaro bog'liqlikda lingvistik tayyorgarligini rivojlantirishda kasbga yo'naltirilgan ta'limning tayanch konsepti sifatida kontent va til integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu masala bo'yicha jahon miqyosida ko'plab olimlar shug'ullanishgan. Ular maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili metodikasi xususida o'z fikrlarini bildirishgan. Shuningdek, CLIL ta'lim texnologiyasiga asoslangan o'qitish Rossiyalik olimlar tomonidan ham to'liq qo'llab-quvvatlandi. Texnika ta'lim muassasalarida kontent va til integratsiyasiga asoslangan ta'lim ko'pincha ingliz tilida o'qitiladigan maxsus fanlar integratsiyasi asosida o'qitila boshlandi, fanlarning me'yoriy asoslari yaratildi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Oliy ta'lim sohasida integratsiyani hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, CLIL ta'lim texnologiyasi va uning ta'rifi, tarixi "global" integratsiya darajasiga chiqdi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari darajasida "kengaydi", so'ngra fanlararo dasturlar bilan soha mutaxassislik fanlarining tarmoqlararo aloqalari integratsiyalashuviga olib keldi. Fanlararo aloqalarni kuchaytirishning ko'rsatilgan darajasi ma'lum vazifalar, shu jumladan, o'zaro ta'sir bilan o'rganiladigan fanlarni integratsiyalovchi didaktik tarkibiy qismlari bilan boyitildi.

Fanlararo integratsiyaga asoslangan ta'lim maxsus kasbiy fanlarni o'qitish usullariga alohida talablar qo'yish bilan birga ularni integratsiya darajasiga olib chiqishni talab etadi. O'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani hisobga olgan holda o'qituvchi ijodiy yondashishi, talabalar bilimining yaxlitligi va izchilligini ta'minlash uchun o'quv jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi kerak. Talabalar mavzu bo'yicha to'g'ri fikr-mulohaza va bilim olayotganlariga ishonch hosil qilish uchun fan o'qituvchilari bilan hamkorlik qilishi samara beradi. Fanga oid terminlarni to'g'ri qo'llaganliklariga ishonch hosil qilingandan keyin, reja asosida matn ustida ishlashga kirishiladi, bu esa assimilyatsion jarayonni osonlashtiradi va yaqinda olingan bilimlarni mustahkamlaydi, fanni ingliz tilida o'zlashtirishni ta'minlaydi.

CLIL texnologiyasi strategiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi samaradorligi va afzalliklari tahlil qilingan holda, konchilik yo'nalishi talabalari kasbiy leksik kompetensiyasini ta'lim texnologiyalari yordamida rivojlantirish mantiqiy-tuzilmaviy modelini yaratdik. Mazkur model asosida konchilik yo'nalishida talabalarining kasbiy leksik kompetensiyasini CLIL ta'lim texnologiyasi orqali takomillashtirish imkoniyati kengaytiriladi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to'g'ri qo'yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Talabalarda kasbiy leksik kompetensiyaning CLIL ta'lim texnologiyasi orqali takomillashtirish modeli o'zaro aloqador va o'zaro strategik maqsadli, pedagogik tuzilmaviy jarayon va natijadan iborat majmuani ifoda etadi (2.1-rasmga qarang). Konchilik yo'nalishi talabalarida ingliz tilini o'qitishda kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish funksiyalariga pedagogik, moslashuv va ijtimoiylashuv kabilarni kiritish mumkin. Ushbu model talabada kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish mazmunini, faoliyati tuzilmasini o'zida ifoda etadi:

1) pedagogik faoliyat sifatida leksik kompetensiyaning mohiyati va ahamiyatini aniqlashtirish;



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

2) ilmiy-tadqiqot faoliyati asosiy tamoyillarini o'rganish (prinsipial);

3) tashkiliy-boshqaruv faoliyati harakatning kasbiy, rivojlantiruvchi omil va ijtimoiy ko'nikmalarini ishlab chiqish.


Modelning strategik maqsadining tarkibiy asosi konchilik yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, maqsadli tarkibiy asosning ijtimoiy ehtiyoji sifatida talabalar leksik kompetensiyasini rivojlantirish zarurati, malaka talablari, DTS talablari, fan dasturini aks ettiradi.

Metodologik va rivojlantiruvchi omillar talabalarning kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishga doir metodologik yondashuvlar va metodik tizimni ifoda etadi. Tadqiqot doirasida CLIL ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish belgilangan bo'lsada, mazkur jarayonda tadqiqot mazmuni, shakli va didaktik vositalariga doir o'zaro tutash yondashuvlar sifatida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



2.1-rasm. Konchilik yo'nalishi talabalaril kasbiyl leksik kompetensiyasini ta'lim texnologiyalari yordamida rivojlantirish modeli.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Attard S., Walter L. The CLIL4U Guidebook with Technology - Enhanced Learning Clilstore, 2021. – 161p.
2. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 338 b.
3. Coyle D., Hood Ph., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
4. Mehisto P., Marsh D., & Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.
5. Nation P. New Ways in Teaching Vocabulary. Teachers of English to Speakers of Other Languages Publication. – Washington D.C: ERIC Clearinghouse, 1994. – 227 p.
6. Алексеева Л.Е. Методика обучения профессионально ориентированному иностранному языку /– Санкт- Петербург: СПбГУ, 2007. – 136 с.
7. Безбородова С.А. Развитие иноязычной профессиональной лексической компетенции студентов горных специальностей на основе информационно - коммуникационных технологий: Дисс... канд. пед. наук. Екатеринбург: УГПУ, 2016. – 251 с.